



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

XIVA SHAHRINING SHKLLANISH VA RIVOJLANISH
BOSQICHLARI

Atoshov S.B

arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida joylashgan Xiva shahri davrlar bo'yicha rivojlanish bosqichlari to'g'risida so'z boradi

Kalit so'zlar: Ichan qal'a, Deshon qal'a, shahar, hudud, devor, xonlik, Xeyvak, sulola.

Kirish: Dunyoda qadimda shakllanib bugungi kungacha yetib kelgan tarixiy hududlarni saqlash va arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash, ulardan maqsadli foydalangan holda turizm samaradorligini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar bajarilmoqda. Tarixiy shaharlarni qayta qurish va ta'mirlash borasida olib borilayotgan ishlarda hududlarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, eng rivojlangan bosqichini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tarixiy strukturani imkon qadar saqlab qolish, ob'ektlarning muhofaza zonalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Asosiy qism: Xiva shahri O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi o'ziga xos davriy rivojlanish bosqichlariga ega. Xiva shahrining, ma'lumki, mustaqillik yillarida 2500 yillik yubileyi YuNESKO rahnamoligida keng nishonlandi va tarixiy shahar Ochiq osmon ostidagi muzey sifatida YuNESKOning ro'yxatiga olindi. Xivaning shakllanishi eng qadimgi paydo bo'lgan qism atrofida bugungi kunda ham rivojlanib kelmoqda.

Mil. avv. V asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Ahamoniylar davlati tasarrufida, so'ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda Xiva orqali SHarqni G'arb bilan bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Xiva IV asr boshlaridan Xorazm bilan birga Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u qal'a devori bilan o'rab olingan. Mil. avv. V asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan xalos bo'lgach, Xivada shahar tuzilmasining asosiy elementlari shakllana boshlaydi.

Milodning boshlarida Xiva shahrida hayot yana tiklana boshlaydi. Qal'a devorining g'arbiy qismida ark bunyod etiladi. I-III asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal'a devorlari tashqarisidan qalin g'isht devor bilan mustahkamlanadi, natijada shahar devori qalinligi 7-9 metrga yetadi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mil. IV-V asrlarda shaharni yana qum bosgan. VI – VIII asrlarda Xiva qayta tiklana boshlaydi. Xiva xududida zamindorlarning dastlabki ko'shk-qo'rg'onlari paydo bo'la boshlaydi. Ichan qal'ada shunday ko'shklardan 2 tasi topilgan.

Xiva – O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi qadimgi va navqiron shaharlaridan biridir. O'zbekistonning shimoliy g'arbida, Xorazm viloyatining janubida,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 95 m balandlikda joylashgan. SHahar yonidan Polvonyop (qadimiy Xeykaniq) kanali o'tgan. Shaharning qadimgi qismidagi juda ko'p arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Ichan qal'a sharqning ekzotik shahar timsolini o'zida saqlab qolgan shahar hisoblanadi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar mil. avv. V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug'i bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo'lgan qadimgi osetin tilidagi "Xiauv" – qal'a so'zidan, boshqalari esa antik davrdan Xiva hududidan oqib o'tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o'zgartirilgan, ya'ni Xeyvaniq–Xeyvaq–Xeva–Xiva nomidan kelib chiqqan deb yozib qoldirilgan.[2] Xorazmlik tarixchi Xudoyberdi Qo'shmuhammad[] Xorazmning qadimiy shaharlarini nomma-nom sanar ekan. "Xorazmning yana bir shahri – Raml. U Som ibn Nuh tomonidan bunyod etilgan. Hozir u Xivaq nomi bilan mashhur. Raml, ya'ni qumga serob joy ma'nosida bo'lgan, - deb eslatib o'tadi."[3]

Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo'lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deb "Dili G'aroyib" asarida eslab o'tadi.

Ma'lumki, so'nggi ming yillar davomida Xiva to'g'risida arab, fors, xitoy, uyg'ur, rus, venger, nemis olim va sayyohlari: Ibn Havqal[5], Yoqut, Ibn Batuta, M.Qoshg'ariy, V.H. Vamberi, S.P. Tolstov[6] kabilar bu haqda fikr-mulohazalarini yozib qoldirganlar. "Avesto"da Xorazm O'rta Osiyoda rivoj topgan, o'z hududi, chegaralariga ega bo'lgan davlatlardan biri sifatida tilga olingan[7]. Xiva shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan.

Xiva shahrining asos solingani haqidagi so'nggi ma'lumotlarda aytilishicha, u Xeyvak qudug'i atrofida o'sgan, uning suvi ajoyib ta'mga ega bo'lgan va quduq Injildagi Nuh payg'ambarning o'g'li Somning buyrug'i bilan qazilgan. Bu quduqni bugungi kunda Xivaning eski mahallasi, Ichan qal'ada ko'rish mumkin.

Miloddan oldingi ikkinchi ming yillik o'rtasida bu yerlarda rivojlangan irrigatsiya, texnika mavjud bo'lgan, ular miloddan oldingi birinchi ming yillik yanada yuksakroq darajaga erishgan. O'sha vaqtdan beri Xorazm O'rta Osiyoning va butun forsiy olamning eng muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan.

XII – XIII asr boshlarida Xiva shahri Xorazmshoxlar davrida ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220-1221 yillarda Xorazm CHingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq hunarmandchilik, kulolchilik, koshinkorlik singari boshqa mehnat sohalari orqali shahar qayta tiklana boshladi va rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, XVI-XIX asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O'rta va Yaqin SHarq shaharlari bilan savdo aloqalari o'rnatildi.

X-XVI acrning 2-yarmidan Xiva har tomonlama rivojlandi. Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. SHahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2 ta katta ko'cha va 4 darvoza (Otdarvoza, Polvondarvoza, Bog'chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal'a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal'a devorining uz. 2200 m, bal. 6 - 8 m, tag zaminining qalinligi 10





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

m. Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 m, eni 400 m, jami 26 ga maydonga ega.

SHunday qilib Xiva 1221-yildan mo'g'ullar imperiyasi, 1388-yildan temuriylar davlati tarkibida, XVI asr boshlaridan 1920 yil 2 fevralgacha Xiva xonligi poytaxti bo'lgan. Xonlik 1873 yil rus qo'shinlari tomonidan zabt qilinib, Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantirilgan. 1920–24-yillarda Xiva Xorazm Xalq Sovet Respublikasi poytaxti bo'lib turgan.

O'zbek davlatchiligi tarixi boskichlaridagi uchta xonlikdan biri bo'lgan Xiva xonligidir. XV asrda poytaxti - Vazir, keyinchalik Ko'hna Urganch, XVI asrning 70-yillaridan - Xiva shahri bo'lgan.

Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm hududini SHayboniyxon 1505 yilda bosib olgan. SHayboniyxon vafotidan keyin Xorazm Eron safaviylari qo'l ostiga o'tgan.

XVI asrda Xiva xonligini Elbarsxon 1511 yildan, Sulton Hojixon (1516), Husaynqulixon (1516), So'fiyonxon (1516-22), Bujaqaxon (1522-26), Avaneshton (1526-38), Alixon (1538-47), Akatoyxon (1547-56), Yunusxon (1556-57), Do'stxon (1557-58), Hoji Muhammadxon (1559-1602) lar boshqarganlar.

Abulg'oziy Bahodirxon 1662 yilda Buxoro xoni Abdulazizxon bilan sulh tuzib, 1663 yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirgan. Buning uchun otasi Anushaxonga tug, lashkar va Hazorasp shahrini in'om etgan va Xivaning Ichan qal'asidagi Oq masjid yonida uning nomiga katta hammom qurdirgan. Xammomga Oq masjid yaqinidagi gumbazli kichik xonadan kiriladi. Hammom xonalari issiqni yaxshi saqlash uchun yer ostiga joylashtirilgan bo'lib, tashqaridan faqat gumbazlar ko'rinib turadi. Anushaxon hammomida daxliz, kiyimxona, sovuqxona, issiqxona, issiq suv turadigan hovuzcha, go'lax bor. Xonalarning o'zaro bog'lanishida qadimiy hammomlar an'analari takrorlangan. Suv tarnovlardan hovuzga yig'iladi. O'txona dudlari maxsus yo'llar orqali hammom xonalari ostidan o'tib, ularni isitadi va mo'rkon orqali tashqariga chiqadi. Issiq suvli hovuz atrofidagi to'rtta xona devordagi tuynuklar orqali suv bilan ta'minlanadi. Hammom pishiq g'ishtdan ishlangan. Ichki tomoni suvalgan, hech qanday bezak yo'q. 1984 yilda ta'mir qilinib, ishga tushirilgan. Anushaxon taxtga o'tirgach, xonlik chegaralarini mustahkamlash uchun Yangi Kot, SHohobod qal'alarini qurdirgan. Anushaxon davrida Qoraqalpog'istondagi Sulton Vays bobo va Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbaralari, Oq masjid ta'mirlangan.[1]

Xiva xonligi shaharlari mudofaa devorlarida ham bir nechta darvozalar mavjud bo'lgan. SHaharlarning hududiy jihatdan kengayib borishi natijasida darvozalar soni ham ko'payib borgan. Jumladan, poytaxt shahar Xivaning ichki va tashqi qismlari - Ichan qal'a va Dishan qal'a devorlarida bir qancha darvozalar mavjud edi. Ma'lumotlarga ko'ra, shaharning Ichan-qal'a devorida "uchta darvoza", tashqi devorida esa yettita, xususan sharqda Xazorasp shimolda Urganch va Bog'cha, janubi-sharqda Eshik darvozasi va boshqalar mavjud edi.[8]







MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Tarixshunoslik tahlillari Xiva xonligi shahar va shaharchalari haqida ham ko'plab ma'lumotlar borligini asoslaydi. Jumladan, Xiva shahri mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, uning tashqi devorida 1863 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 9 ta darvoza, 1873 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 7 ta darvoza bo'lgan.[9] Ulardan 4 tasi – Xazorasp, Bog'cha, Eshik, Urganch darvozalari asosiy darvoza hisoblangan. Sobiq sovet davridagi ma'lumotlarga ko'ra, o'rganilayotgan davrda Xiva shahri ma'muriy jihatdan O'r, Kaptarxona, Mehtarobod, Yangi qal'a, Bol Hovuz, Nurullaboy, Bog'cha, Rofanik deb nomlangan 10 ta mahallaga bo'lingan.[10]

Xiva shahri bu davrda hududiy jihatdan 2 qismdan – Ichan qal'a (ichki shahar) va Dishan qal'a (tashqi shahar)dan iborat bo'lib, uning bunday tuzilishi shahar ichidagi shahar manzarasini bergan.

Ichan qal'aga to'rt darvoza – shimolda Bog'cha (yoki Urganch) darvoza, g'arbda Ota darvoza, sharqda Polvon darvoza (eski nomi Xazorasp darvoza), janubda Tosh (yoki Qo'hna bozor) darvozasi orqali kirilgan. Ichki qal'a baland paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, uni aylanasing uzunligi qariyb 2,2 km, balandligi 7-8 metrga, poydevorining qalinligi esa 10 metrga yetgan.[10]

Tarixshunoslik tadqiqotlariga ko'ra, XIX asrning 60-yillarida Ichan qal'a hududi Pahlavon, Ulliyo'g'ich, Oqmasjid, Yipakchi, Qushbegi mahallalariga (dahalariga) bo'lingan. Ichki qal'adan shimoldan janubga hamda sharqdan g'arbga qarab kesib o'tgan ikki asosiy ko'cha shahar hududini to'rt qismga bo'lgan. Bu asosiy ko'chalarga turli tomonlarga qarab ketgan ko'p sonli kichik ko'chalar bog'langan. Ularning umumiy soni 33 tani tashkil etgan.[8]





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatmusaev T.SH. O'zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2019y.
2. Durdieva G.S. "Xiva me'moriy yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash metodologiyasini takomillashtirish" nomli ma'ruza shaklidagi dissertatsiyasi. Toshkent-2017.
3. Qo'shmuhammad X. "Dili G'aroyib". 1831. 22 b.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent-"O'qituvchi" nashriyoti. 1994 y. 334 bet.
5. Ibn Xavkal Kitob surat al-ard Movarounnahr. Toshkent. 2011.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. М., 1948.
7. Кадыров М., Отрывки из Авесты (перевод), Материалы по истории общественно-философской мысли в Узбекистане, Т., 1976.
8. Agzamova G.A. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shaharlar hayoti. Doktorlik dissertatsiyasi. –T.: 2000.
9. Костенко Л. Город Хива в 1873 году. – Спб., 1879. – С. 321.
10. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы. - Т.: 1941. - С. 8.
11. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительство Узбекистана (XIX– начало XX веков). - Т.: 1988. - С. 151.
12. Boltaev A. Xiva xonligi tarixiga oid materiallar // O'zbekiston tarixi xrestomatiyasi. IVjild. – 48b.

